



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV
KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI**

SAFAROVA MOHICHEHRA XONZAFAROVNA

*Denov tadbirkorlik va pedagogika
institute, magistratura talabasi
E-mail: m.safarova@dtpi.uz*

Kalit soʻzlar: *ogʻzaki, ijtimoiy, individuallik, muloqot, goʻdaklik, konsepsiya, monolog, dialog.*

Annotatsiya: *Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish orqali ularni ijtimoiy muhitda oʻz fikrlarini bayon qilish, doʻstlari, ota-onalari va tarbiyachilar bilan faol muloqotga kirishishi uchun kommunikativ yondashuv masalalari oʻrganiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi ogʻzaki va ogʻzaki boʻlmagan hollarda shakllanishi aniqroq ochib beriladi va bolalarning erta yosh davridagi muloqotining shakllanmay qolish sabablari bayon qilinadi. Bolalarni maktab taʼlimiga faol tarbiyalab, muloqotchanligini oshirish dolzarbligi hisoblanadi. Ushbu maqolada bolaning erkin kommunikator ekanligi va muloqotida oʻz fikr-mulohazalarini oʻz tili, yaʼni sheva va lahjalarida qanchalik bayon qila olishi koʻrsatilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning soʻz boyligining shakllanish darajalari koʻrsatib oʻtilgan va bola hayotida kommunikatsiya qanchalik muhim ekanligi asosiy muammo sifatida qaralgan.*

**ISSUES OF DEVELOPMENT OF COMMUNICATIVE
COMPETENCE IN PRESCHOOL CHILDREN**

MOHICHEHRA SAFAROVA KHONZAFAROVNA

*Denov Institute of Entrepreneurship
and Pedagogy, graduate student
E-mail: m.safarova@dtpi.uz*



Key words: verbal, social, individuality, communication, infancy, concept, monologue, dialogue.

Annotation: The article examines the issues related to the communicative approach in developing the communicative competence of preschool children, enabling them to express their opinions in a social environment and engage in active communication with their friends, parents, and educators. The formation of preschool children's speech in both verbal and non-verbal situations is clarified, and the reasons behind the lack of communication development in early childhood are discussed. It is essential to actively nurture children's communication skills within the context of school education. This article highlights the child's ability to be a free communicator and the extent to which they can express their thoughts in their native language, including dialects and variations. The levels of vocabulary development in preschool children are outlined, and the significance of communication in a child's life is emphasized as a central issue.

**ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ У ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

МОХИЧЕХРА САФАРОВА ХОНЗАФАРОВНА

Институт предпринимательства

и педагогики Денова, аспирант

m.safarova@dtpi.uz

Ключевые слова: вербальное, социальное, индивидуальность, общение, младенчество, концепция, монолог, диалог.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы коммуникативного подхода к развитию коммуникативной компетентности дошкольников, чтобы они могли выражать свои мнения в социальной среде и активно взаимодействовать с друзьями, родителями и воспитателями. Более подробно раскрывается формирование речи дошкольников в вербальных и невербальных ситуациях, а также описываются причины несформированности детского общения на ранних этапах. Особое внимание уделяется важности активного обучения детей в процессе школьного образования и повышения их



коммуникативных навыков. В статье показано, что ребенок является свободным коммуникатором и насколько эффективно он может выражать свои мысли на родном языке, включая диалекты и вариации. Приведены уровни формирования словарного запаса дошкольников, а также рассматривается важность общения в жизни ребенка как основная проблема.

KIRISH

Kommunikativ kompetentlik keng ma'noda til va nutq qobiliyatlarini o'z ichiga olsa-da, u nafaqat so'zlashuv, balki bir-birini tushunish, tilni ijodiy va mos ravishda ishlatish, emotsional bog'lanishlarni aniqlash va boshqalar bilan samarali munosabatda bo'lishni ham nazarda tutadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu kompetentlik shaxsiy rivojlanishning asosiy elementi bo'lib, chunki bu yoshda ularning ijtimoiy muhitga moslashishining dastlabki bosqichlari boshlanadi.

Bugungi kunda ko'pchilik maktabgacha yoshdagi bolalar muloqot jarayoniga kirishishga qiynalishadi. Bunga sabab bolalar atrofdagilar bilan yetarlicha muloqotga kira olmasligidir. Bolalarning kommunikativ aloqalari go'daklik davridan boshlanadi va bola eng sodda so'zlar bilan atrofdagilar bilan muloqotga kirishadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligi har bir yoshda o'zgacha tus oladi. Bolalarning muloqotga kirishishining qanchalik tez va teran bo'lishi, o'z navbatida, kattalarning ham hissasiga bog'liq. Demak, bola oilada faol muloqotda bo'lsa va u keyinchalik maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham yaxshi pedagog-tarbiyachilar nazorati ostida kommunikativ jarayonni rivojlantirsa, bolalarning muloqotchanligi yaxshi rivojlanadi va ular o'z fikrlarini erkin bayon qilishda muloqot qilishga qiynalmaydilar. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar umumdidaktika tamoyilida mashg'ulotlar o'tkazib, zamonaviy innovatsion texnologiyalar bilan muloqotchanlikni oshirib, bolalar bilan bevosita nutqiy suhbatlarni ham shakllantirishlari kerak.

Bunday ishlarni amalga oshirishda maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Zero, ushbu davlat talablarida aynan kommunikativ kompetensiya alohida mezon sifatida ta'kidlangan. Bunda bolaning har bir rivojlanish sohasi e'tiborga olingan. Bola



kommunikativ kompetensiyasi orqali atrof-muhitni tasvirlaydi, o'ziga anglagan borliqni muloqoti orqali boshqalarga bayon qiladi. Bu yosh davrlarda bolada "Men" konsepsiyasi shakllanadi va bolada individuallik xususiyati ortadi. Bola muloqot orqali ijtimoiy munosabatga faol kirishadi. Kommunikativ kompetentlik — bu bolaning muloqot qilishda, boshqa odamlar bilan muloqotda fikr almashishda, o'z fikrini to'g'ri va aniq bayon qilishga qaratilgan qobiliyatidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirib borish, ularni kelajakda muvaffaqiyatlarini ta'minlash, jamiyatga moslashuvchanligini oshirish va intellektual qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun poydevordir.

MATERIAL VA METODLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasi, so'zlashish qobiliyati darajasi va har kungi muloqotimiz davomida o'rganiladigan ilk kuzatuv ishlarida mavzuning dolzarbligini quyidagilar bilan asoslaymiz:

- ☐ Maktabgacha yoshdagi bolalarning kattalar bilan muloqotga kira olmasligi va o'z ota-onalariga o'z fikrini yetarlicha bayon qila olmasligi.
- ☐ Bolalarga tarbiyachilar tomonidan yetarlicha didaktik ta'lim berilmasligi va natijada bolalarda nutqiy savodxonlikning pastligi, fikrlash doirasining torligi.
- ☐ Bolalar muloqot jarayonida do'stlari bilan kommunikativ munosabatlarga yetarlicha kira olmasligi.
- ☐ Bolalar maktab ta'limigacha bo'lgan davrda o'z lug'at zaxirasini boyita olmasligi, uzun so'zlar va gaplarni to'liq, ravon ayta olmasligi va o'z fikridan tez chalg'ishi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-sonli "2017–2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 9 sentyabrda PQ-3261-sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori va mazkur sohaga tegishli bo'lgan ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ishlarni amalga oshirish ushbu maqolaga muayyan darajada xizmat qiladi.



Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ rivojlanishi bevosita tevarak-atrof va odamlar bilan bog'liqdir. Bunda albatta bolaning ota-onasi, tarbiyachilar va o'rtoqlari asosiy rol o'ynaydi. Bola ulg'aygan sari ijtimoiylashuvi oshadi va odamlar orasida muloqotchanligi kuchayadi. Bola mashg'ulot jarayonida bir qancha savollar berishi va bunga o'zi xohlagan javoblarni olishni istashi tabiiy holatdir. Agar ijtimoiy muhitda bola o'z vaqtida yetarlicha nutqini oshira olmasa, bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ba'zi hollarda bolalarning tili chiqmay, imo-ishoralarga tayanib qolishi ham mumkin. Ko'pincha bunday holatlarga kirishuvchanligi past bolalar duch keladi. Shuning uchun tarbiyachilar bunday tortinchoq, muloqotchanligi past bolalar bilan individual shug'ullanishi kerak. Bu haqda Sharq allomasi Abu Ali ibn Sino ham bola tarbiyasi bilan yakka shug'ullanish haqida aytib o'tgan.[1,67]. Kommunikativlik — shaxslar orasidagi axborot almashinuvi, aloqa hisoblanadi. Kompetensiya har bir sohaning bilish kalitidir. Bolalarning muloqotchanligining oshishiga ularning atrofidagi o'rtoqlari ham ta'sir qiladi. Agar o'rtoqlari orasida muloqot qilishda qiynalsa, u kommunikativlik kompetensiyasini yaxshi rivojlantira olmaydi. Bunday vaziyatlarda bolaga ota-onasi va tarbiyachilar yordam beradi va bolalar orasidagi muloqotning bir maromda borishiga yordam bera olishlari mumkin. Bunday hollarda bolalar kommunikativligiga yordam beradigan bir nechta metodlardan foydalanish kerak. Misol uchun, o'yin metodi va turli suhbat, munozaralar metodi. Bu metodlarni qullashda psixologik usul va mashqlardan ham foydalanish , bolalarning kirishuvchanligini oshiradi va faol nutq shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, o'yin metodi orqali bolalar turli rollarga kirishib , boshqalar bilan muloqot qilishni ham o'rganadi. Yoki , suhbat metodi orqali og'zaki til ko'nikmalari rivojlanadi. Shu bilan birgalikda boshqa metodlar ham bola kommunikativligining rivojlanishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bundan tashqari, G'arb olimlari ham bolalarning kommunikativ kompetensiyasi haqida bir necha fikrlar bildirgan. G'arb olimi H. Xomiskiy shunday ta'kidlagan: "Til kompetensiyasi, insonni ichki mental grammatikasi deb nomlangan. Bunda til qoidalari abstrakt ko'rinishda bo'lib, ona tilida faoliyat yuritish, individni



ong ostida inkusiya shaklida tasavvur qilishdir[2,67]." Yana bir olim, psixolog R.S. Hemov kompetentlik haqida fikrini bildiradi: "Kompetentlik aniq bir bilimni egallash, qandaydir bir sohaning imkoniyatlaridan xabardor bo'lish." Har bir G'arb olimi kommunikativ kompetentlik haqida juda ko'p tavsiyalar berib, o'z fikrlarini bildirib o'tgan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetensiyasini oshirishda, ularning yosh chegaralarini ham hisobga olish zarur. Chunki bolalar yoshiga qarab, ulardagi muloqot shakli o'zgaradi. Misol uchun, 3-4 yoshli bolalar juda ko'p savollar beradi va o'zlari xohlagan javobni kutadi. Bu yoshdagi bolalar ham dunyoni o'zlari tasavvurida tushunadi va savollarga doimo javob kutadi. Bu yoshdagi bolalarda asosan dialog nutqi rivojlanadi. Bolalarning 6-7 yoshlarida esa asosan monolog nutqi shakllanadi. Bolalar hayotidagi har ikki nutq shakllanishi, ularning ijtimoiy hayotida kommunikativ nutqning qaysi darajada shakllanganligiga bog'liqdir. Har qanday yoshda ham bola o'zi uchun haq kommunikator hisoblanadi va u o'z qarashlarini faqat nutq orqali bayon qiladi. Emas, balki imo-ishoralar orqali ham juda tushunarli tarzda namoyon qilishi mumkin. Chunki bolalar o'ziga ishongan va hissiy emotsiyalarini yashirmagan holda fikrlarini bayon qiladilar. Bunday bolalar yaxshi oilada o'sishsa va yaxshi ijtimoiy muhitda ulg'ayishsa, ular jamiyat rivojiga katta hissa qo'shadigan insonlar bo'lib yetishadilar. Bolaning muloqotdagi o'zini tutishi uning umumiy shaxsiy rivojlanishiga, bilim va mahoratlarni o'rganishga, shuningdek, jamiyatga moslashishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kompaniya, sinf yoki o'yinchoqlar bilan muloqot qilish bolalarning nutqini va hissiy intellektini rivojlantirishga yordam beradi. Yaxshi kommunikativ kompetentlikka ega bo'lgan bolalar boshqa insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishda ishonchli bo'ladilar va kelajakda ijtimoiy va professional muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativligini oshirishda o'yin metodidan foydalanib kursak, uning nutqining oshganligini kurishimiz mumkin. Misol uchun (6,7)yoshli bolalarning do'kon do'kon o'yini, ularning jamiyat hayotidan misol qilib, ijtimoiy muloqotga kirishishiga yordam beradi. Bolada avval muloqotga kirishish past bo'lgan bo'lsa ham, u o'rtoqlari bilan tez-tez bunday o'yinlar o'ynashi



orqali o'z nutq qobiliyatini oshiradi va o'yin metodi orqali bog'cha yoshidagi bolalarning kommunikativ kompetentligi oshadi. Buni asosan bog'chadagi 2ta guruh misolida kursak buladi. Birinchi guruhga o'yin metodini qullamay suhbatlashsak , bolalar kamgap , muloqotchanligi past, keyin ikkinchi guruhga o'yin metodi orqali bozor bozor o'yini o'ynatilib mashg'ulot o'tildi . Bundan keyin ikkinchi guruh bilan suhbat qilib borilganda bolalarning kommunikativ kompetentligini ancha oshganligiga guvoh bulindi. Demak, o'yin metodi orqali biz bolalarning kommunikativ kompetentligini oshirib , muloqot kunikmalarini rivojlantira olar ekanmiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh doiralariga qarab, ularning savollariga imkon qadar javob berish kerak. Chunki bola psixologiyasiga yomon ta'sir qiladigan manbalardan foydalanish, ya'ni bolalar savoliga etiborsiz qarab javob bermaslik va ortiqcha jahl qilish, bola muloqotchanligini pasaytirib yuboradi.

□ Bunday hollarda ota-onalar, tarbiyachi-pedagoglarga quyidagilar kabi talablar qo'yiladi:

- Bolalarning savollariga erinmasdan, to'liq javob berish.
- Bolalar fikrlash doirasidan chetga chiqmagan holda, javobni to'liq, tushunarli va bola tilida yetkazib berish.
- Bola do'stlari bilan bo'lgan urushishlari, tortishishlaridan shikoyat qilib o'z "menini" ustun qo'yganda, vaziyatga to'g'ri baho berib, adolatli yechim topish.
- Bolaning qiziquvchanligini inobatga olgan holda, mashg'ulotga yo'naltirib, unga motivatsiya berish.
- Bolalar bilan tez-tez suhbat metodini o'tkazish va kommunikativ kompetensiyasini oshirish zarur.

Bolaning aqliy rivojlanishiga mos holda unga vazifa berilishi kerak. Aksariyat hollarda bola bu vazifani bajara olmay, tushkunlikka tushib qoladi va ruhiyati pasayib, muloqotchanligini yo'qotishi mumkin. Shuning uchun, har bir topshiriq, tushuntirish ishlari bola yoshiga mos bo'lishi, bolalarda kommunikativ



kompetentlikning yaxshi shakllanishiga zamin yaratadi. Buni bir necha usullar doirasida ko'rishimiz mumkin.[3, 554].

3. Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish usullari

a. O'yin orqali o'rganish

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin va o'yin faoliyatlari o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'yinlar orqali bolalar o'zaro muloqot qilishni, boshqa odamlarning nuqtai nazarini tushunishni va ijtimoiy muhitda to'g'ri o'zini tutishni o'rganadilar. Bu jarayonda bolalar kreativlikni rivojlantiradilar va o'z fikrlarini samarali ifodalashni o'rganadilar.

b. Kitoblar va hikoyalar

Kitoblar va hikoyalar orqali bolalar til va nutq ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ota-onalar va tarbiyachilar bolalar bilan birgalikda hikoyalar o'qib, ularni muzokaraga solishlari, savollar berishlari va bolaning fikrini tushunishlari mumkin. Bu jarayon bolaning nutqini rivojlantiradi va unga o'z fikrini to'g'ri ifodalashni o'rgatadi.

c. Ijtimoiy vazifalar

Bolalar o'zaro muloqot qilish uchun ijtimoiy vazifalarni bajaradilar. Misol uchun, birgalikda o'yinchoqlarni yig'ish, birgalikda tasvirlar yaratish yoki guruh ishlari tashkil qilish orqali ular muloqot qilishni, boshqalar bilan hamkorlikni o'rganadilar.

Bu bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantiradi va ularni o'zlarini erkin ifoda etishga o'rgatadi.

d. Hissiy intellektni rivojlantirish

Hissiy intellekt bolalar uchun kommunikativ kompetentlikning ajralmas qismidir. Bolalar o'z emotsiyalarini tushunish va boshqalar bilan ular haqida muloqot qilishni o'rganishlari kerak. Masalan, o'z hissiyotlarini ifodalash, boshqalarning his-tuyg'ulariga hurmat bilan qarash va muammolarni hal qilishda hissiy muvozanatni saqlash kommunikativ kompetentlikni rivojlantiradi.[4,556].

XULOSA



Quyidagi bayon qilingan ilmiy tadqiqot ishimiz mazkur xulosani asoslaydi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalarga doimiy ravishda qo'llab-quvvatlashni taqdim etishlari zarur. Ularning ishonchli va mehribon muloqoti bolalarni o'ziga xos va ijtimoiy jihatdan moslashtiradi. Tarbiyachilar bolalarni nafaqat to'g'ri so'zlashga, balki boshqalar bilan ochiq va halol muloqot qilishga ham o'rgatishlari kerak.

Bunda maktabgacha yoshdagi bolalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda ota-onalar ham, tarbiyachi-pedagoglar ham birdek xizmat qilishi va bola ijtimoiy jamiyatda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirishi bayon qilingan. Maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan davlat talablaridagi mezonlardan biri bo'lgan kommunikativ kompetentlikni bolalar orasida rivojlantirishga erishilishi kutilmoqda. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish — bu jamiyatga ijtimoiy moslashgan va o'z fikrlarini aniq ifoda etuvchi shaxslar yetishtirish yo'lida amalga oshiriladigan muhim ishdir. Oyin, kitoblar, ijtimoiy vazifalar va hissiy intellektni rivojlantirish usullari yordamida bolalar ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni mustahkamlashadi. Tarbiyachilar va ota-onalar bolalar bilan to'g'ri muloqot qilib, ularni muvaffaqiyatli kelajak uchun tayyorlashda asosiy rol o'ynaydilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. 2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risidagi qarori . 29.12.2016 yil PQ-2707, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami , 2017 yil , 1-son , 11-modda, 35-son, 923-modda.
2. Mirziyoyev. Sh. M Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari tug'risidagi qarori. 9 .09.2017yil, PQ-3261, «Xalq so'zi » gazetasi. 2017 yil, 11-sentyabr . 181 (6875)-son.
3. Komilova Dilnozaxon Abdulxaevna (2021) Maktabgachayoshdagi bolalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga oid nazariyalar.UDK
- 4.Рубинштейн, С. Л. Основы общей психологии. Питер.-2013- 713с.



5. Джураев Р.Х., Толипов Ў.Қ., Сафарова Р.Ғ. ва бошқалар. Педагогик атамаларлуғати. - Т.: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. “Фан” нашриёти, 2008. -196 б.
6. “Мактабгача таълим ва тарбия тўғрисида” Ўзбекистон Республикаси ЎРҚ-595-сон Қонуни. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 17.12.2019 й., 03/19/595/4160-сон. – 20 б. Электрон манзил: <https://lex.uz/docs/4646908> Мурожаат қилинган сана: 8.10.2020.
7. “Ўзбекистон Республикасининг илк ва мактабгача ёшдаги болалар ривожланишига қўйиладиган давлат талаблари”ни тасдиқлаш ҳақидаги Мактабгача таълим вазирининг 2018 йил 3 июлдаги 3032-сон буйруғи. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 04.07.2018 й., 10/18/3032/1450-сон. – 8 б. <https://lex.uz/docs/3805404>
8. Дилнозахон Абдулхаевна Комилова КОММУНИКАТИВ КОМПЕТЕНЦИЯ-МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАР ИЖТИМОЙЛАШУВИНИНГ МУҲИМ МЕЗОНИ www.ares.uz VOLUME 1 | ISSUE 3 | 2020 ISSN: 2181-1385
- 1.